

URBANIZATSIYANING IJTIMOIIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR

Kurbanaliyeva X.I.

TDIU katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada urbanizatsiya jarayonining ijtimoiy rivojlanishga ta'siri sotsiologik jihatdan tahlil qilingan. Urbanizatsiyaning iqtisodiy imkoniyatlar, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlariga kirish, madaniy xilma-xillik va innovatsiyalar kabi ijobiy jihatlari bilan birga, ijtimoiy tengsizlik, qashshoqlik, jinoyatchilik, atrof-muhit muammolari kabi salbiy oqibatlari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Urbanizatsiya, sotsiologiya, shaharsozlik, ijtimoiy rivojlanish, ijtimoiy tengsizlik, barqaror rivojlanish, ijtimoiy harakatchanlik, infratuzilma, atrof-muhit muammolari, anomiya.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье социологически анализируется влияние урбанизации на социальное развитие. В ней освещаются как позитивные аспекты урбанизации, такие как экономические возможности, доступ к образованию и медицинским услугам, культурное разнообразие и инновации, так и её негативные последствия, включая социальное неравенство, бедность, преступность и экологические проблемы.

Ключевые слова: *Урбанизация, социология, градостроительство, социальное развитие, социальное неравенство, устойчивое развитие, социальная мобильность, инфраструктура, экологические проблемы, anomия.*

ANNOTATION

This article sociologically analyzes the impact of urbanization on social development. It highlights the positive aspects of urbanization, such as economic opportunities, access to education and healthcare services, cultural diversity, and innovation, alongside its negative consequences, including social inequality, poverty, crime, and environmental problems.

Keywords: *Urbanization, sociology, urban planning, social development, social inequality, sustainable development, social mobility, infrastructure, environmental problems, anomie.*

Urbanizatsiya (frans. urbanisation, ing. urbanization, lot. urbanus — shaharga mansub, urbs — shahar) — jamiyat hayotida shaharlar rolining ortib borishi; ishlab

chiqaruvchi kuchlarning joylashuvi, aholining ijtimoiy, demografik tarkibi, turmush tarzi va madaniyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Urbanizatsiya — tarixiy rivojlanish asosida shakllangan jamiyat bosqichlari va hududiy mehnat taqsimoti natijasida sodir bo'lgan ko'p qirrali geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayondir.[1] Bugungi kunda dunyo aholisining 55% i shahar hududlarida istiqomat qiladi bu ulush 2050 yilga kelib 68% gacha oshishi kutilmoqda. Urbanizatsiya – insoniyat aholisining qishloq joylardan shahar hududlariga bosqichma-bosqich ko'chishi – dunyo aholisining umumiy o'sishi bilan birgalikda 2050 yilga borib shahar hududlarida yashovchi aholi soni 2,5 milliard kishiga o'sishi mumkin. Bu o'sishning deyarli 90%i Osiyo va Afrikada sodir bo'lishi taxmin qilinmoqda.[2] O'zbekistonda urbanizatsiya jarayoni boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan jadal emasligi bir qator omillar bilan bog'liq. Garchi 2030-yilga kelib urbanizatsiya darajasini 51% dan 60% ga oshirishni maqsad qilgan bo'lsa-da, bu yo'lda ba'zi to'siqlar mavjud. Buning sabablari urbanizatsiya jarayonida boshqaruv tizimidagi kamchiliklar, infratuzilmaning yetarlicha samarali ishlamasligi, transport tirbandliklari, internet tezligining pastligi, noqonuniy qurilishlar kabi muammolar hisoblanadi. Mamlakatimizda urbanizatsiyani tartibga soluvchi yagona normativ-huquqiy hujjatning mavjud emasligi, hozirgacha bu jarayonni tartibga soladigan aniq qonunchilik asoslari ishlab chiqilmaganligi ham rivojlanishning izchil amalga oshmasligi omillaridan biri bo'lib qolmoqda.[3] Urbanizatsiya nafaqat aholi joylashuvining o'zgarishi, balki jamiyatning barcha jabhalarida, jumladan, ijtimoiy tuzilmalar, turmush tarzi, qadriyatlar tizimi va inson munosabatlarida chuqur o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Sotsiologlar urbanizatsiyani jamiyat rivojlanishining murakkab va ko'p qirrali omili sifatida o'rganadilar. Klassik sotsiologlar Georg Zimmel, Emil Dyurkgeym, Maks Veber va Luis Virt kabi olimlar shahar hayotining inson ruhiyatiga, ijtimoiy munosabatlarga va madaniyatga ta'sirini chuqur tahlil qilganlar. Georg Zimmel “Metropolis va ruhiy hayot”[4] asarida shahar muhitining insonning hissiyoti va shaxsiyatiga ta'sirini, xususan, shahar aholisida begonalashuv va loqaydlikning rivojlanishini ko'rsatgan. Emil Dyurkgeym esa urbanizatsiya jamiyatda “mexanik birdamlikdan” “organik birdamlikka” o'tishga olib kelishini, ijtimoiy aloqa va munosabatlarning mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvga asoslanishini ta'kidlagan.[5] Luis Virt o'zining “Urbanizm hayot tarzi sifatida” nomli maqolasida shahar aholisining soni, zichligi va xilma-xilligi shaxsiy munosabatlarning nomuayyanligi, ijtimoiy tashkilotlarning murakkabligi va ixtisoslashuvning ortib borishiga qanday ta'sir qilishini tahlil qilgan.[6]

Zamonaviy sotsiologik bilim doirasida Manuel Kastels, Devid Harvi va Saskia Sassen kabi olimlar globalizatsiya[7], informatsion texnologiyalar[8] va siyosiy iqtisodiyotning urbanizatsiyaga ta'sirini[9] o'rganib, shaharlarning global iqtisodiy tizimdagi rolini va undagi ijtimoiy tengsizliklarni tahlil qilganlar. Mazkur maqolada urbanizatsiya jarayonining ijtimoiy rivojlanishga ta'siri, uning asosiy ijobiy va salbiy jihatlari sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Urbanizatsiya jarayoni ijtimoiy rivojlanish uchun bir qator muhim ijobiy imkoniyatlarni yaratadi. Bu imkoniyatlar jamiyatning umumiy farovonligi va taraqqiyotiga hissa qo'shadi. Urbanizatsiyaning imkoniyatlari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

1. Shaharlar **iqtisodiy faoliyatning asosiy markazlari** bo'lib xizmat qiladi. Korxonalar, sanoat, xizmat ko'rsatish sohalari va texnologik innovatsiyalar shaharlarda jamlanadi. Shaharlarda kasbiy sohalarning ko'pligi aholi uchun keng ish imkoniyatlarini yaratadi. Urbanizatsiya ijtimoiy harakatchanlikni rag'batlantiradi, ya'ni odamlarga o'z ijtimoiy-iqtisodiy mavqeini yaxshilash imkonini beradi. Ta'limga, kasbiy malakani oshirishga va tadbirkorlik imkoniyatlari yuqoriligi sababli, shaharlar insonlar uchun "ijtimoiy lift" vazifasini o'taydi. [10]

2. Shaharlarda odatda **yuqori sifatli ta'lim muassasalari – maktablar, kollejlari, universitetlar** mavjud. Bu aholiga, ayniqsa yoshlarga zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallash, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Sog'liqni saqlash sohasida ham shaharlar yetakchi hisoblanadi.[11] Yirik kasalxonalar, ixtisoslashgan tibbiyot markazlari va malakali shifokorlar asosan shaharlarda jamlanishi aholining sog'lig'ini saqlash va davolanish imkoniyatini oshiradi. Tibbiy xizmatlar ko'rsatish sifati va tezligi ham qishloq joylariga nisbatan shaharlarda sezilarli darajada yuqori bo'ladi.[12]

3. **Shaharlar turli madaniyatlar, millatlar, etnik guruhlar va ijtimoiy sinflarning o'zaro aralashishi joyidir.** Bu xilma-xillik madaniy almashinuvni va turli jamoalar o'rtasida g'oyalar va qadriyatlarni almashishni osonlashtirishi mumkin.[13] Shaharlar san'at galereyalari, teatrlar, muzeylar, konsert zallari va turli madaniy tadbirlarning markazi bo'lib aholining madaniy saviyasini oshirishga va estetik didini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Shuningdek, turli odamlarning bir joyda to'planishi yangi g'oyalar va ijtimoiy innovatsiyalar uchun qulay muhit yaratadi. Ijtimoiy muammolarni hal qilishda yangi yondashuvlar, volontyorlik harakatlari va fuqarolik jamiyati institutlari shaharlarda faol rivojlanadi.

4. **Shaharlar axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi uchun muhim markazlardir.** Zamonaviy aloqa tizimlari, internetga keng kirish imkoniyati va yuqori tezlikdagi ma'lumotlar uzatish infratuzilmasi shaharlarda yaxshi

rivojlangan bo'ladi. Bu aholi va korxonalar uchun tezkor axborot almashinuvi, yangiliklardan xabardor bo'lish va global aloqalar o'rnatish imkoniyatini yaratadi. Shu sababli shahar aholisi dunyodagi voqealar, ilmiy yutuqlar va madaniy yangiliklardan tezroq xabardor bo'lib, o'z bilim doirasini kengaytiradi.[8]

Urbanizatsiya jarayonining ijobiy tomonlari bilan birga, u jamiyatga bir qator salbiy ta'sirlarni ham o'tkazadi. Bu ta'sirlar ijtimoiy muammolar, tengsizliklar va turmush sharoitining yomonlashuviga olib kelishi mumkin. Quyidagilar urbanizatsiya jarayonining asosiy muammolari sifatida ko'riladi:

1. Tez va nazoratsiz urbanizatsiya shahar aholisi o'rtasida katta daromad tafovutlarini keltirib chiqarishi mumkin. Shaharlar boylikni jamlagani holda, qishloq joylardan kelgan kam ta'minlangan aholi ko'pincha munosib ish topa olmaydi va uy-joy muammosiga duch keladi. Natijada, shahar chekkalarida yoki ma'lum hududlarda norasmiy turar-joylar paydo bo'ladi. Bu hududlarda aholi qashshoqlik, infratuzilmaning yo'qligi, sanitariya sharoitlarining yomonligi va ijtimoiy ajralish kabi muammolar bilan yashaydi. Tengsizliklar nafaqat iqtisodiy, balki ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa asosiy xizmatlarga kirishda ham namoyon bo'ladi, bu esa ijtimoiy mobillikni cheklaydi.

2. Shaharlar aholi zichligi yuqori bo'lgan joylar bo'lib, bu yerda ijtimoiy nazorat qishloq joylaridagidan ancha past hisoblanadi. Ijtimoiy nazoratning kamligi jinoyatchilik, xususan, mulkiy jinoyatlar va giyohvandlik kabi ijtimoiy patologiyalar ko'payishi mumkin. Luis Virt ta'kidlaganidek, shahar hayotining nomuayyanligi va shaxsiy munosabatlarning yuzakiligi shaxsiy begonalashuv va yolg'izlik hissini keltirib chiqarishi mumkin.[6] Jamiyatning turli guruhlari o'rtasidagi qadriyatlar to'qnashuvi va umumiy normalarning zaiflashuvi Emil Dyurkgeym tahlil qilgan "anomiya" holatiga olib keladi. Bu ijtimoiy tartibsizliklarni, nizolarni va jamiyat a'zolarining bir-biridan uzilishini kuchaytiradi.

3. Urbanizatsiya jarayoni ayniqsa ekologik muammolarni ham kuchaytiradi. Sanoatning rivojlanishi, transport vositalarining ko'payishi va aholi sonining ortishi havo, suv va tuproqning ifloslanishiga olib keladi. Shaharlarda chiqindilarning miqdori keskin ortib, ularni boshqarish va utilizatsiya qilish katta muammoga aylanadi. Suv va energiyaga bo'lgan talabning ortishi ularning kamayishiga sabab bo'ladi. Yashil maydonlar va tabiiy ekotizimlarning yo'q bo'lib ketishi esa shaharlarning ekologik barqarorligini buzadi va iqlim o'zgarishiga o'z hissasini qo'shadi. Bu holat shahar aholisining sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi, nafas yo'llari kasalliklari va boshqa atrof-muhit bilan bog'liq kasalliklarning ko'payishiga olib keladi.[14]

Urbanizatsiyaning yuqorida sanab o'tilgan salbiy oqibatlarini minimallashtirish va uning ijobiy imkoniyatlaridan to'liq foydalanish uchun kompleks yondashuv va strategik rejalashtirish zarur. Sotsiologik tadqiqotlar ushbu jarayonni samarali boshqarish uchun muhim ma'lumotlar beradi.

Shahar rivojlanishi muammolarini oldini olish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Uzoq muddatli va barqaror shaharsozlik rejalari ishlab chiqilishi, bu rejalarda aholining o'sishi, uy-joyga bo'lgan talab, transport infratuzilmasi, yashil hududlar va kommunal xizmatlarning rivojlanishi hisobga olinishi kerak.

2. Ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va barcha fuqarolar uchun imkoniyatlarni tenglashtirish maqsadida inklyuziv ijtimoiy siyosatlar joriy etilishi kerak. Bu iqtisodiy jihatdan kam ta'minlangan oilalar uchun arzon uy-joy dasturlarini amalga oshirish, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlariga barcha uchun teng kirishni ta'minlash, shuningdek, ishga joylashishga ko'maklashuvchi dasturlarni yaratishni o'z ichiga oladi.

3. Shaharlarda ekologik muammolarni hal qilish uchun kompleks choralar ko'rilishi shart. Bu sanoat chiqindilarini nazorat qilish, transportning ekologik toza turlarini rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantirishni o'z ichiga oladi. Shaharlarda yashil maydonlarni saqlash va kengaytirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish va chiqindilarni qayta ishlash tizimini takomillashtirish lozim.

4. Shahar hayotidagi ijtimoiy muammolarni hal qilishda hukumat bilan birga fuqarolik jamiyati institutlari va jamoat birlashmalarining faol ishtirokini ta'minlash zarur. Fuqarolarning shahar rivojlanishiga oid qarorlarni qabul qilish jarayonlariga jalb etilishi, ular yashayotgan hududlarning ehtiyojlarini aniqlash va muammolarini hal qilinishini osonlashtiradi.

Mamlakatimizda Prezidentimiz farmonlari va dasturlarida shahar aholisining sonini oshirish, kichik va o'rta shaharlarni rivojlantirish, shaharsozlikni tubdan takomillashtirish muhim ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Bu jarayon mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda urbanizatsiyaning ijobiy jihatlari shahar infratuzilmasining rivojlanishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, xizmat ko'rsatish sohasining kengayishi va madaniy hayotning jonlanishida namoyon bo'lmoqda. Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlari iqtisodiy va madaniy markazlar sifatida o'z ahamiyatini oshirmoqda. Shu bilan birga, urbanizatsiyaning salbiy oqibatlari, masalan, poytaxtga migrantlar oqimining ortishi, transport tirbandliklari, uy-joy narxlarining oshishi, ba'zi hududlarda kommunal xizmatlarning yetishmasligi kabi muammolar

ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Qishloq joylardan kelgan aholining shaharga moslashuvi, ishga joylashuvi va ijtimoiy integratsiyasi ham alohida sotsiologik tadqiqotlarni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, urbanizatsiya insoniyat jamiyatining ajralmas va doimiy jarayonidir. U ijtimoiy rivojlanishga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatuvchi murakkab hodisadir. Shaharlar iqtisodiy o'sish, innovatsiya, madaniy xilma-xillik va ish o'rinlariga ega bo'lish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, ular, atrof-muhit muammolari, ijtimoiy tengsizlik, qashshoqlik, jinoyatchilik kabi muammolarni ham keltirib chiqaradi.

Sotsiologik tahlillar urbanizatsiya jarayonlarini chuqurroq tushunishga, uning oqibatlarini prognoz qilishga va samarali boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi. Barqaror shaharsozlik, inklyuziv ijtimoiy siyosatlar, ekologik nazorat va fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki urbanizatsiyaning ijobiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish va shahar hayotining sifatini yaxshilash uchun muhim ahamiyatga ega. Kelajakda shaharlar nafaqat iqtisodiy markazlar, balki barcha aholi uchun qulay, yashashga munosib va ijtimoiy adolatli makonlarga aylanishi uchun doimiy monitoringli sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish talab etiladi. Urbanizatsiya jarayonining ijtimoiy oqibatlarini chuqur tahlil qilish, jamiyatning barqaror rivojlanishi va inson farovonligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zME, 2005. T. 9. – B. 114.
2. <https://www.un.org/uk/desa/68-world-population-projected-live-urban-areas-2050-says-un>
3. <https://uz24.uz/uz/articles/urbanizatsiya-25-2-7>
4. D. Weinstein. *The Sociology of Georg Simmel*. New York: Free Press, 1950, pp.409-424
5. The Division of LaborIn Society. E. Durkheim. Copyright 1933 by The Macmillan Company Fourth Printing, September, 1960.
6. Urbanism as a Way of Life. L. Wirth .American Journal of Sociology, Vol. 44, No. 1 (Jul., 1938), pp. 1-24
7. The Global City: Introducing a Concept. Saskia Sassen. WINTER/SPRING 2005.VOLUME XI ISSUE 2
8. Castells, Manuel (1996). [The Rise of the Network Society](#), The Information Age: Economy, Society and Culture Vol. I. Cambridge, MA; Oxford, UK: Blackwell. [ISBN 978-0-631-22140-1](#).

9. Harvey, D., A Brief History of Neoliberalism, Oxford, Oxford University Press, 2005, chapter 5
10. Shakunthala. URBANIZATION AND SOCIAL CHANGE: UNDERSTANDING THE CHALLENGES AND OPPORTUNITIES © 2017 IJRAR January 2017, Volume 4, Issue 1 www.ijrar.org (E-ISSN 2348-1269, P- ISSN 2349-5138)
11. Shen L, Ren Y, Xiong N, Li H, Chen Y. Why small towns can not share the benefits of urbanization in China? J Clean Prod. (2018) 174:728–38. 10.1016/j.jclepro.2017.10.150 [CrossRef] [Google Scholar]
12. Wang X, Chen J, Burström B, Burström K. Exploring pathways to outpatients' satisfaction with health care in Chinese public hospitals in urban and rural areas using patient-reported experiences. Int J Equity Health. (2019) 18:1–13. 10.1186/s12939-019-0932-3 [PMC free article] [PubMed] [CrossRef] [Google Scholar]
13. Мигунова Ю.Ю., Новиков В.Ю. / Влияние урбанизации на формирование социокультурного потенциала городов // Вестник Майкопского государственного технологического университета. 2019. Вып. 4(43). С. 164-172. DOI: 10.24411/2078-1024-2019-14017 **Castells, Manuel (1996).**
14. Антипин Н.А. Урбанизация и здоровое население: экологический аспект.//Всероссийский форум «Пироговская хирургическая неделя» ко дню рождения Н.П. Пирогова. Журнал. Здоровье - основа человеческого потенциала, проблемы и пути их решения. М., 2014г.